



## Scientific approaches to the classification of child victimization and the causes of their origin

Salomat NIYOZOVA<sup>1</sup>

Tashkent State University of Law

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received April 2024  
Received in revised form  
15 May 2024  
Accepted 15 June 2024  
Available online  
25 June 2024

**Keywords:**

children,  
victimization,  
victim,  
crime,  
responsibility,  
neglect,  
violence,  
family,  
conflicts,  
cause.

### ABSTRACT

The article describes scientific approaches to the classification of child victimization and the reasons for its occurrence, and also analyzes the opinions of scientists related to the concept of “child”. The author of the article expressed the opinion that children, more than adolescents, are exposed to domestic violence, which negatively affects their mental and emotional development. In particular, he argues that children exposed to such violence may experience problems in school, difficulties communicating with peers, depression, and other mental health problems. In addition, children living in domestic violence situations face multiple risks, including exposure to traumatic events, neglect, direct violence, and the risk of losing one or both parents, which has negative consequences for their development. The author of the article also emphasizes the clear impact of these factors on children and identifies three categories of children's problems associated with domestic violence.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss3-pp118-131>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Bolalar viktimligining tasnifi va ularni kelib chiqishi sabablariga doir ilmiy yondashuvlar

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

bolalar,  
viktimlik,  
jabrlanuvchi,  
jinoyat,  
javobgarlik,  
qarovsiz qolishi,

Mazkur maqolada bolalar viktimligining tasnifi va ularni kelib chiqishi sabablariga doir ilmiy yondashuvlar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada “bola” tushunchasi bilan bog'liq olimlarning fikrlari tahlil etilgan.

Shu bilan birga muallif maqolada bolalar maishiy zo'ravonlikka o'smirlarga qaraganda ko'proq duchor

<sup>1</sup> Doctor of Law, Acting Professor, Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption, Tashkent State University of Law. E-mail: [salomat.niyozova@mail.ru](mailto:salomat.niyozova@mail.ru). ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3970-2985>

zo'rvonlik,  
oilaviy,  
ziddiyatlar,  
sabab.

bo'layotganliklari va bu ularning aqliy va hissiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi yuzasidan o'z fikrlarini berib o'tgan. Jumladan, bunday zo'rvonlikka uchragan bolalar katta bo'lgach, maktabda muammolarga duch kelishlari mumkin, tengdoshlari bilan muloqot qilishi qiyinlashib boraverishi, tushkunlikdan (depressiyadan), kuchli hayajon va boshqa ruhiy buzilishlardan aziyat chekishlari mumkinligi yuzasidan maqolada o'z fikrlarini ilgari surgan.

Bundan tashqari, muallif maqolada oilaviy zo'rvonlik bilan yashaydigan bolalar ko'plab xavf-xatarlarga duch kelishi jumladan, travmatik hodisalarga duchor bo'lishi, qarovsiz qolishi, bevosita zo'rvonlik xavfi va ota-onasidan birini yoki ikkalasini yo'qotish xavfi yuzaga kelishi haqida ham Bularning barchasi bolalar uchun salbiy oqibatlariga olib kelishi va ularga aniq ta'sir ko'rsatishi mumkinligi borasida ham ta'kidlab o'tadi.

Mazkur maqolani yozish jarayonida muallif oiladagi zo'rvonlik bilan bog'liq bolalar muammolarining uchta toifasi mavjudligini aniqlaydi.

## Научные подходы к классификации детской виктимизации и причинам ее возникновения

### АННОТАЦИЯ

#### Ключевые слова:

дети,  
виктимизация,  
потерпевший,  
преступление,  
ответственность,  
безнадзорность,  
насилие,  
семья,  
конфликты,  
причина.

В статье описываются научные подходы к классификации детской виктимизации и причинам её возникновения, а также анализируются мнения учёных, связанные с понятием "ребёнок". Автор статьи выразил мнение, что дети больше, чем подростки, подвергаются домашнему насилию, что негативно влияет на их психическое и эмоциональное развитие. В частности, он утверждает, что дети, подвергшиеся такому насилию, могут столкнуться с проблемами в школе, трудностями в общении со сверстниками, депрессией и другими психическими расстройствами. Кроме того, дети, живущие в условиях домашнего насилия, сталкиваются с множеством рисков, включая воздействие травмирующих событий, пренебрежение, прямое насилие и риск потери одного или обоих родителей, что имеет негативные последствия для их развития. Автор статьи также подчёркивает явное влияние этих факторов на детей и выделяет три категории детских проблем, связанных с насилием в семье.

### KIRISH

Ma'lumki, bugungi kunda yosh avlod ongi va qalbiga singdirish, ularni turli salbiy illatlardan huquqiy himoya qilishni va ular huquqlarini ta'minlashni amaliy faoliyat dasturiga aylantirish vazifalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, buning huquqiy mexanizmini takomillashtirishning o'rni muhimdir.

Zero, yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularning huquqlarini har tomonlama ta'minlash, bunda turli subyektlarning rolini oshirish, hozirgi zamon taraqqiyotining asosiy xususiyatlarini chuqurroq o'rganish, milliy qadriyatlarni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazib berish kabi muhim masalalar yechimi bilan uzviy aloqadordir. Shu boisdan ham barkamol shaxs tarbiyasi jamiyatda asrlar davomida muhim hayotiy va ijtimoiy muammo sifatida qarab kelinganligi bejiz emas.

So'nggi yillarda qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, ilgari "yopiq" bo'lgan zo'ravonlik mavzusini keng yoritishning imkonini berdi. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi 406-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi, 2010-yil 29-sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296-sonli, 2019-yil 29-maydagi "Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4342-sonli, 2020-yil 29-maydagi "Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4736-son qarorlari, 2021-yil 9-avgustdagi "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6275-sonli Farmonining qabul qilinganligi fikrimizni tasdiqlaydi.

Shuningdek, mamlakatimizda bu sohada olib borilgan islohotlar natijasida jinoyat va huquqbuzarliklar jabrlanuvchilarini o'rganish, ularning viktimologik profilaktikasi, viktimizatsiya subyektlarining yangi tizimi shakllandi.

### **MATERIAL VA METODLAR**

Tadqiqot doirasida qiyosiy-huquqiy hamda mantiqiy (analiz va sintez) metodlardan foydalanilgan. Shuningdek, tadqiqot davomida rasmiy elektron manbalar hamda olimlarning ilmiy maqola va ilmiy ishlaridan foydalanilganligi sababli materiallarni ishonchli materiallar sifatida tavsiflash mumkin degan fikrdamiz.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Darhaqiqat, bolalarning viktimologiyasi ularning kelib chiqish sabablari, muammo va yechimlar masalalari milliy olimlarimiz tomonidan deyarli o'rganilmagan. O'zbekistonlik olim va mazkur sohada ilmiy tadqiqot olib borgan M.Rustamboyev, S.Niyozova tomonidan viktimologiyaning umumnazariy jihatlari[1, – 239 b.], Z.Esanova[2, – 289 b. ], F.Miruktamova[3, –B.147. ] tomonidan voyaga yetmaganlarning sud ishlarida ishtirokiga oid huquqlarini ta'minlash mavzularida, A.X.Saidov[4, –B.5.] tomonidan bola huquqlarini ta'minlanishining xalqaro huquqdagi ahamiyatiga oid ilmiy ishlar o'rganilgan.

Shuningdek, voyaga yetmaganlarga nisbatan zo'ravonlik hamda bolalarning viktimizatsiyasi holatlarining kelib chiqishi sohasida chet el ekspert va olimlaridan T.V.Varchuk, Ye.N.Yershova, L.S.Alekseeva, B.Neyl, A.L.Genley, B.Fortson, J.Klevens, M.Merrik, L.Gilbert, S.Aleksandr, S.Graxam, S.Limber, P.Olvis[5] va boshqalar izlanishlar olib borishgan.

Bu borada viktimologiya tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, lotin tilida "viktima" qurbon, "logos" grekcha ta'limot so'zlaridan olingan bo'lib, o'z xulq-atvori bilan jinoyatning

qurboni bo'lgan shaxs, jinoiy zo'ravonlik qurboniga xos xususiyatga ega bo'lgan jabrlanuvchi to'g'risidagi ta'limotdir [6, – 239 b.].

Mazkur tushunchalar ikki xil shaklda ifodalansa-da, MDHga a'zo mamlakatlar, jumladan O'zbekiston viktimologiyasi sohasida “qurbon” atamasi bilan birga “jabrlanuvchi” iborasi ham bir xil mazmunda ishlatiladi. Adabiyotlarda jabrlanuvchi yuridik mezonining mohiyatiga ko'ra, moddiy huquq tizimiga mansubligiga ko'ra ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksining 54-moddasiga ko'ra, jabrlanuvchi – jinoyat, xuddi shuningdek aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi shaxsga ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazgan deb hisoblash uchun dalillar bo'lgan taqdirda, bunday shaxs jabrlanuvchi deb e'tirof etilishi belgilangan. Shuningdek jabrlanuvchi deb e'tirof etish haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqarishi ko'rsatilgan. Mazkur moddaga muvofiq jabrlanuvchi voyaga yetmagan yoki belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan shaxs bo'lsa, ishda u bilan birgalikda yoki uning o'rniga qonuniy vakili ishtirok etadi.

Masalaning nazariy va huquqiy tahliliga o'tadigan bo'lsak, bolalar deyilganda amaldagi kodekslarda quyidagi iboralar ishlatiladi: “bola”, “go'dak”, “emizadigan bola”, “kichik yoshdagi bola”, “o'spirin” (14 yoshdan 18 yoshgacha), “voyaga yetmagan bolalar” (18 yoshga to'lmagan) [7].

Voyaga yetmagan bolalar deyilganda o'n sakkiz yoshga to'lmagan bolalar tushuniladi. Amaldagi qonunlar bilan belgilangan bola huquqlari ularni tug'ilishi bilan vujudga keladi. Ularning muomala layoqati har bir davlatlarning tegishli qonunlari bilan tartibga solinadi.

Ayrim mamlakatlarda voyaga yetganlik fakti yosh senzi bilan emas, balki inson hayotidagi u yoki bu yuridik faktning sodir etilishi bilan belgilanadi. Misol uchun, Afrikaning ba'zi davlatlarida shaxs nikohga kirib oila qurganidan so'nggina voyaga yetgan deb hisoblanadi [8].

“Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”da, 1924-yil 26-sentyabrda qabul qilingan “Bola huquqlari Jeneva Konvensiyasi”da va 1959-yil 20-noyabrda “Bola huquqlari” Deklaratsiyasida voyaga yetmaganlar doirasini belgilovchi norma mavjud emas [9, –B.80. ].

Mazkur tushunchaga yangi davrga kelib, ya'ni 1989-yildagi BMTning “Bola huquqlari” Konvensiyasida “bola” tushunchasiga tarif beriladi. Ushbu Konvensiyaning 1-moddasida berilgan ta'rifga asosan, bola bu agar qonun bo'yicha ushbu bolaga voyaga yetganlik oldindan belgilanmagan bo'lsa, 18 yoshga to'lmagan har qanday inson hisoblanadi. Shuningdek Konvensiyaga muvofiq, bolalar nafaqat passiv g'amxo'rlik obyekt sifatida, balki maxsus huquqlar to'plamiga ega shaxslar sifatida qaraladi.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida “insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligi” [10] e'tirof etilgan.

Ayrim olimlar jinoyat qurbonlarini tiplarga ajratish masalasini hal qilishda jabrlanuvchining nafaqat jinoiy-protsessual maqomini, balki ularning barcha shaxsiy alomatlarini e'tiborga olish zarurligini ta'kidlaydilar. Jumladan, T.V.Varchuk jabrlanuvchilarning quyidagi tasnifini taklif etadi:

Potensial qurbon – bu o'zining shaxsiy sifatleri, maqomi, pozitsiyasi, xulq-atvori kabi xislatlari tufayli jinoyatdan oldin “qurbon” rolini egallashi mumkin bo'lgan shaxsdir;

Tasodifiy qurbon – bu ham potensial qurbon tipiga mansub bo'lsa-da, lekin u tasodifiy vaziyatlar yoki jinoyatchining tanlovi sababli qurbonga aylanadi. Ba'zan tasodif jinoyatning qurboniga kim aylanishini belgilaydi.

Latent qurbon – bu jinoyatdan real va amalda jabr ko'rgan shaxs bo'lib, muayyan sabablar tufayli mazkur holat aniqlanmay yoki rasmiylashtirilmay qolgan qurbon tipidir [11, –S. 38.].

Bundan tashqari, demografik va ijtimoiy belgilar – jinsi, yoshi va mansab darajasiga asoslangan tasnif keng qo'llaniladi. Amaliyotda har doim ham potensial va real viktimlashuv bir-biriga doim ham mos kelavermaydi. M.Rustambayev va S. Niyozovanning fikricha, turli yoshdagi shaxslar yosh bilan bog'liq o'ziga xos ruhiy-jismoniy xususiyatga ega. Bundan kelib chiqadiki, voyaga yetmaganlar o'zlarining qiziquvchanliklari, ishonuvchanliklari, tez ta'sir ostiga tushishlari, jismoniy kuchsizliklari sababli yuqori viktimlikka egadir, bunday sifatlar voyaga yetmaganlarni nafaqat qurbonga aylanishlari uchun, balki jinoyat sodir etishlari uchun ham sabab bo'lishi mumkin. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra 12-14 yoshgacha davr shaxsning eng viktimlik yoshidir [12, – 239 b.].

### **TADQIQOT NATIJALARI TAHLILI**

Inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda voyaga yetmaganlarni har qanday bezoriliklardan, shu jumladan ta'lim va boshqa ijtimoiy munosabatlarda sodir etiladigan jinoiy bezoriliklardan himoya qilish mexanizmi mustahkamlab qo'yilgan.

Bola huquqlari bo'yicha qo'mita 2011-yildayoq BMTning maxsus sessiyalaridan birida asosiy muammolardan biri sifatida bolalarga nisbatan zo'rvonlik hodisasining dunyoda keng tarqalgan amaliyot ekanligini ko'tarib chiqqan edi: “U ko'plab shakllarda namoyon bo'lmoqda va turli darajadagi shafqatsizlik bilan amalga oshirilmoqda. Agar Qo'mita o'zida mavjud bo'lgan barcha ma'lumotlarni jamlasa, dahshatli hamda juda xavfli holat ko'zga tashlanadi. Ular bola huquqlarining buzilishi bilan bog'liq ko'plab hodisalardan iborat bo'lib, bu dunyoning bolalarni o'z huquqlariga ega shaxs sifatida hurmat qilishdan naqadar uzoq, ekanligini tasvirlab beradi” [13].

Ushbu sessiyadan avvalroq BMT Bolalar jamg'armasi mutaxassislari oilaviy zo'rvonlik muammosiga bag'ishlangan xalqaro tadqiqot natijalarini e'lon qilgan edi. Ular butun dunyoda 275 million bolalar zo'rvonlik qurbonlari bulayotganligini aniqladilar, shuningdek ularga zo'rvonlikning beixtiyor guvohlari ham kirishini e'tiborga olgan edilar.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi qariyb 6 million bola ishlashga majbur, ularning ko'plarini mehnat qilishga majbur qilinmoqdalar. Ma'ruza mualliflarining taxminlariga ko'ra, bir milliard atrofidagi bolalar maktabdagi jismoniy jazodan qonun bilan himoyalangan.

Barcha raqamlar taxminiy bo'lib, bolalarga nisbatan zo'rvonlik hodisasi ko'pincha jamiyatdan yashirin ravishda amalga oshiriladi. Ye.N. Yershovanning tahliliga ko'ra, jinsiy yoki jismoniy zo'rvonlik qurboniga aylangan bolalar va o'smirlar ko'pincha bunday xatti-harakatlarni yetarli darajada jinoiy emas deb hisoblab, yoki oshkoralik, qasos olishdan qo'rqib, shuningdek boshqa sabablarga ko'ra huquqni muhofaza qilish organlariga xabar bermaslikni afzal ko'radilar. Maktabda yoki boshqa ta'lim muassasasida o'qiyotganda o'smir o'qituvchidan, muassasaning o'zi ishongan boshqa xodimidan yordam so'rashi mumkin. Ta'lim muassasasida advokat bo'lib ishlash amaliyoti shuni ko'rsatdiki, o'smir ba'zan unga nisbatan sodir etilgan zo'rvonlik haqida gapirishdan uyaladi. Bola bilan gaplashayotganda siz ba'zi xususiyatlarni hisobga olishingiz kerak.

Shunday qilib, voyaga etmaganlar, ular bilan qilingan harakatlarning mohiyati va ma'nosini tushunmasdan, xayolparastlikka yo'l quyadilar. Shuning uchun voyaga yetmaganlarning so'zlariga alohida e'tibor berish kerak[14].

Yuqorida keltirilgan BMTning tadqiqot o'tkazgan mutaxassislari bolalarga nisbatan jismoniy zo'ravonlik ko'pincha jamoatchilik tomonidan oddiy hol sifatida baholanayotganligini ta'kidlaydilar. Mutaxassislar shuningdek ushbu baho juda yuzaki bo'lib, raqamlar real mavjud bo'lgan holatdan keskin farq qilishi mumkin, chunki uy sharoitidagi zo'ravonlik holatlari haqida har kim doim ham huquqini muhofaza qilish organlariga ma'lum qilinavermaydi.

Shu bilan birga tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik bolalar maishiy zo'ravonlikka o'smirlarga qaraganda ko'proq duchor bo'lmoqdalar va bu ularning aqliy va hissiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ular katta bo'lgach, maktabda muammolarga duch kelishlari mumkin, tengdoshlari bilan muloqot qilishi qiyinlashib boraveradi, tushkunlikdan (depressiyadan), kuchli hayajon va boshqa ruhiy buzilishlardan aziyat chekadilar.

YUNISEF mutaxassislarning fikriga ko'ra, ushbu bolalar orasida ko'pincha ichkilikbozlik, giyohvandlik hamda o'smirlar jinoyatchiligi hodisalari yuz beradi. Maishiy zo'ravonlik hukm suruvchi oilalarda o'sayotgan bolalar tajovuzkorroq bo'ladilar.

Bolalarning o'zlari kaltaklanish yoki jinsiy tajovuzga duchor bo'lmasalar-da, birga yashayotgan qarindoshlarida ushbu xulq-atvorni kuzatishadi va bu ularning ruhiy va psixologik salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Maishiy zo'ravonlikning qurboni yoki guvohi bo'lgan bolalarning 40 foiz atrofida katta bo'lganlaridan keyin ham uning ta'siridan qutula olmaydilar - yo o'zlari zo'ravonlik qurboni bo'ladilar, yoki oilaviy zo'ravonlik sharoitida o'sganligi sababli, oilaviy ziddiyatlarni hal qilishning yagona yo'li zo'ravonlik deb hisoblagan holda, o'zlari ham zo'ravonlikni amalga oshiradilar.

Zo'ravonlikdan erkaklar, xotin-qizlar ham jabrlanishi mumkin, lekin voyaga yetmaganlarning zo'ravonlikdan jabrlanish ehtimoli yuqoriligi, zo'ravonlik turlari, og'irlik darajasi va kelib chiqadigan oqibatlar keskin farqlanishini inobatga olgan holda, so'nggi islohotlar aynan ularni himoya qilishni talab etadi.

Shuningdek D. Makleodning fikricha, bolalar bilan oiladagi munosabatda ko'pincha kattalar ularni qo'shimcha nazorat qilish vositasi sifatida qarashlari mumkin, shuning uchun har qanday professional organ xodimlari zo'ravonlikni oldini olish jarayoni davomida jabr yetkazuvchilarning niyatlarini tushunishlari juda muhimdir [15].

Bolalarga nisbatan oilada sodir etiladigan zo'ravonlik ijtimoiy hayotdagi va ta'lim muassasalarida sodir etilgan qilmishlardan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- zo'ravon shaxs jabrlanuvchini to'liq nazorat eta oladi, jabrlanuvchi zo'ravondan qochishi va xavfsiz qolishining imkoni yo'q;
- zo'ravonlik bir shaxsning boshqa shaxsga nisbatan ustunlik qilish va uni nazorat qilish maqsadida sodir etiladi;
- zo'ravon shaxs va jabrlanuvchi o'rtasida emotsional bog'liqlik mavjud. Jabrlanuvchi zo'ravonga nisbatan kuchli emotsional qaramlikni his etishi va uchinchi shaxs yordam bermoqchi bo'lganida zo'ravonning yonini olishi mumkin;
- jamiyat a'zolari oila ishiga aralashishni xohlamaydilar;
- oilada sodir etilgan zo'ravonlik davriy xarakterga egadir.

Mutaxassislarni fikriga e'tibor qaratadigan bo'lsak, oilaviy zo'ravonlik bilan yashaydigan bolalar ko'plab xavf-xatarlarga duch kelishadi, masalan, travmatik hodisalarga duchor bo'lish xavfi, qarovsiz qolish xavfi, bevosita zo'ravonlik xavfi va ota-onasidan birini yoki ikkalasini yo'qotish xavfi. Bularning barchasi bolalar uchun salbiy oqibatlariga olib kelishi va ularga aniq ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqotlar doimiy ravishda oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq bolalar muammolarining uchta toifasi mavjudligini aniqlandi: xulq-atvor, ijtimoiy va hissiy muammolar — yuqori darajadagi tajovuzkorlik, g'azab, dushmanlik, muxolif xatti-harakatlar va itoatsizlik; qo'rquv, tashvish, chekinish va depressiya; kambag'al tengdoshlar, aka-uka va ijtimoiy munosabatlar; o'ziga past baho berishdan iborat ekanligi.

Kognitiv va attitudinal muammolar—kognitiv faoliyatning pastligi, maktabda o'z ishining yomonligi, mojarolarni hal qilish ko'nikmalarining yo'qligi, muammolarni hal qilish qobiliyatlarining cheklanganligi, zo'ravon xatti-harakatlar va munosabatlarni qabul qilish, qattiq gender stereotiplari va erkak intiyozlariga ishonish.

Uzoq muddatli muammolar — kattalar ruhiy tushkunligi va travma belgilarining yuqori darajasi, kattalar munosabatlarida zo'ravonlikka nisbatan harakatsizlik[16].

Shu bilan birga, yuqorida keltirilgan xalqaro hujjatlar hamda BMTning Bola huquqlariga oid Qo'mitasining bolalarning har qanday zo'ravonlikdan mustaqilligiga oid 2011-yil 18-apreldagi №13 sonli[17] tartib-qoidalariga asosan bolalarga nisbatan zo'ravonlik va noloyiq munosabat turlarini quyidagicha ko'rishimiz mumkin.

Jismoniy zo'ravonlik - shafqatsizlik va bolaga og'riq keltiruvchi hamda uning sog'lig'i va rivojlanishiga zarar yetkazuvchi insoniyatga mos bo'lmagan maqsadga yo'naltirilgan boshqa xatti-harakatlar:

bolaga yetkazilgan har qanday tana jarohati yoki og'riq berish (urish, chimchilash, tishlash, kuydirish, bolani bo'g'ish yoki cho'ktirish) bolaga tana jarohati yetkazilishiga qarshilik qilmaslik;

bolani har qanday jismoniy jazolash - tarsaki, kaltaklash, tahqirlash bolani dori yoki boshqa kimyoviy vositalar yordamida zaharlash kabilarda ifodalanadi.

Jinsiy zo'ravonlik - kattalarning jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun bolalardan foydalanish. Bolani jinsiy faoliyatga jalb qilish uchun tahdid, kuch, ayyorlik va ishonchdan foydalanish. Shuningdek, bola bilan har qanday jinsiy aloqa yoki munosabatlar (kuch ishlatgan holda yoki ishlatmasdan) va bolani jinsiy aloqaga jalb qiluvchi har qanday xulq-atvor hamda jinsiy tavsifdagi har qanday xatti-harakatlar – o'yinlar, suhbatlar, foto va video tasvirlarni tomosha qilishda namoyon bo'ladi.

Ruhiy zo'ravonlik - bolaga lozim darajada e'tibor bermaslik, g'amxo'rlik qilmaslik, qo'llab-quvvatlamaslik, hissiy yaqinlik ko'rsatmaslik. Bola doimiy ravishda e'tibor va mehrning yetishmasligini his qilib turadi, tahdid va kamsitishlarga duchor bo'ladi va bu o'z qadr-qimmatini bilmaslik va o'ziga ishonchsizlikni oshishiga olib keladi. Yolg'on, tahdid, qo'rqitish, kamsitish, haqorat qilish; boladan voz kechish, izolyatsiya qilish, noijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etish va majburlash bola bajara olmaydigan ishlarni bajarishni asossiz talab qilish bolaning me'yorida rivojlanishiga to'siq bo'luvchi ortiqcha homiylik kattalarning o'z va'dalarini bajarmasligi, bolada ishonch tuyg'usining buzilishi.

Ehtiyotsiz munosabat (befarqlik) - bolaning jismoniy, ruhiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatilishga olib keluvchi hayotiy ehtiyojlarni qondirilmassligidir. Bularga-e'tiborsiz, qarovsiz qoldirish, xavf ostida qoldirish; bola ehtiyojlariga nisbatan befarqlik (ovqatlanishga, tibbiy ko'makka, ta'limga, muloqotga,

rivojlanishga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilmassligi); hissiy yaqinlikning yo'qligi (undan voz kechish); mavjud tahdidan bolani himoya qila olmaslik (istamaslik) kiradi.

Ekspluatatsiya - boladan o'z manfaati yo'lida foydalanish - og'ir mehnat, trafik (foydalanish maqsadida bolalarni olib chiqib ketish, sotish). L.Alekseevaning ta'kidlashicha, eng keng tarqalgan zo'ravonlik turi bu – jismoniy kuch ishlatishdir. Butun dunyoda mazkur zo'ravonlikning asosiy qurbonlari bolalardir.

Shu o'rinda yuqorida ko'rsatilgan bolalarga nisbatan zo'ravonlik va noloyiq munosabatning qanday harakatlarda sodir etilishiga to'xtaladigan bo'lsak, jismoniy zo'ravonlik obyektiv tomonlari: yuzga zarba berish, silkitish, urish, bo'g'ish, tepish, erkinlikni cheklash, kamar, arqon bilan urish, og'ir narsalar va hatto pichoq bilan urish kabi namoyon bo'ladi.

Jismoniy zo'ravonlik tahdidlar (shu jumladan qurol bilan) va shaxsiy mulkni yo'q qilish, yopiq xonada qamoqqa olish va boshqalar kabi bilvosita harakatlarni o'z ichiga oladi [18]. Adabiyotlarda sinonimlari sifatida “Zulm” va “nomunosib munosabat” so'zlari ishlatiladigan “bolalarga nisbatan zulm” tushunchasi (ingl. Child Abuse) Butunjahon Sog'liqni saqlash Tashkiloti tomonidan 1999-yilda taklif etilgan quyidagi ta'rifga tayanadi: “Zulm” yoki “bolalar bilan qo'pol muomalada bo'lish” “...bolaning sog'lig'iga, yashashi, rivojlanishi va layoqatiga amaliy zarar keltiradigan yoki zarar yetkarishi mumkin bo'lgan barcha turdagi jismoniy yoki emotsional salbiy munosabat, jinsiy zulm, ehtiyotsiz yoki befarq munosabat, kommersiya yoki boshqa maqsadlardagi ekspluatatsiyasi” [19] ni anglatadi.

Demak, xalqaro amaliyotda qabul qilingan “bolaga nisbatan zulm” atamasi o'zida “ehtiyotsiz munosabat” hamda “tashlab qo'yilganlik” (Neglect) tushunchalarini ham o'zida mujassam etadi.

Bir necha mutaxassislarning fikricha, bolalarga nisbatan zo'ravonlik va beparvolik natijasida ularning umrbod salomatligi va farovonligiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, bolalik davrida zo'ravonlikka duchor bo'lishi jarohatlar, kelajakda zo'ravonlik qurboni bo'lish va sodir etish, giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish, jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar, miya rivojlanishining kechikishi, ta'lim darajasining pastligi va ish imkoniyatlarining cheklanganligini oshiradi [20].

O'zbekistonda “bolalarga nisbatan zulm va ehtiyotsiz munosabat” tushunchasi avvalo qonuniy asosga tayanadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, zulm deganda ehtiyotsiz va loqayd munosabatda bo'lish nazarda tutilmaydi. Zulm va loqayd munosabat quyidagicha ta'riflanadi:

Bolaga nisbatan zulm - bolaning ixtiyoriga zid ravishda yoki uning ko'makka muhtoj holatidan foydalanib, uning shaxsiy daxlsizlik huquqini buzuvchi jismoniy, jinsiy va ruhiy ta'sir ko'rsatishdir. Mazkur ta'rifga binoan, zulmning jismoniy, jinsiy va ruhiy ko'rinishlari ajratib ko'rsatiladi.

Bolaga loqayd munosabatda bo'lish - ota-onalar yoki ularni o'rnini bosuvchi kishilar, shuningdek boshqa shaxslar tomonidan bolalarni boqish, tarbiyalash, sog'lom turmush kechirish sharoitlarini yaratish, to'la ma'lumot olish va shu kabilarni ta'minlashga doir o'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmasliklaridir.

Zo'ravonlik-kuchsiz usullar yoki zaif va himoyasiz holatdagi obyektga (bolalarga) ruhiy hujumlar va ta'sirlarning salbiy avj tus olishi hisoblanadi. Ammo zo'ravonlik harakatsiz ko'rinishda ham bo'lib, bolaning jismoniy va ruhiy salomatligiga tahdid soladi.



XX asrda bolalarga nisbatan zo'rvonlik va tahdid muammolarini o'rganishda yangi yondashuvlar paydo bo'ldi. Psixologik va huquqiy tasniflar tuzildi. Keyinchalik zo'rvonlik pediatrik, psixiatrik va yuridik qismlarga bo'lindi.

Zo'rvonlikning asosiy sabablari quyidagilardir: bolalik davridagi shaxsiy tajriba, onaning vakolatli tarbiyalash uslubi (kelajakda bu ayollarga nisbatan zo'rvonlik, onasi bilan aloqani uzishga urinish sifatida namoyon bo'ladi); ijtimoiy-iqtisodiy noxush vaziyatlarning ta'siri, ishsizlik, past ijtimoiy maqom; o'zidan va hayotidan qoniqmaslik; psixopatologiya; og'ish va qaramlik; qo'rquv; o'zini o'zi past baholaganlik va o'zini past baholaganlik tufayli yetishmovchilik va kuchga erishish; oiladagi istalmagan bola kabilardan iborat.

Zo'rvonlik (bullying) - bu zo'rvonlik, haqorat qilish yoki tahdid qilish, tajovuzkorona hukmronlik qilish yoki qo'rqitish uchun foydalanish. Bunday xulq-atvorning muhim shartlardan biri bu – zo'rvon yoki boshqalar tomonidan jismoniy yoki ijtimoiy kuchning nomutanosibligini idrok etishdir. Bu nomutanosiblik zo'rvonlikni oddiy kelishmovchiliklardan ajratib turadi [21].

Zo'rvonlik tajovuzkor xulq-atvorning quyi toifasi bo'lib, quyidagi uchta mezon bilan tavsiflanadi: dushmanlik niyati; kuch nomutanosibligi; ma'lum vaqt oralig'ida takrorlanish.

Zo'rvonlik - bu boshqa shaxsga jismoniy, ruhiy yoki hissiy jihatdan zarar yetkazishga qaratilgan takroriy, tajovuzkor xatti-harakatlar majmuidir. Zo'rvonlikning turlicha shakllari bo'lib, yakka tartibdagi zo'rvonlikdan tortib, "mobbing" deb ataladigan guruhli zo'rvonlik shakllari bo'ladi. Agar zo'rvonlik bir guruh tomonidan amalga oshirilsa, bu mobbing deb ataladi [22]. Bunda zo'rvon bir yoki bir nechta "yordamchi"larga ega bo'lib, ular asosiy zo'rvonlarga o'zlarining zo'rvonlik faoliyatida yordam berishga tayyor bo'lishadi.

Maktabda va ish joyida zo'rvonlik "tengdoshlarni suiiste'mol qilish" deb ham ataladi [23]. Robert V. Fuller zo'rvonlikni rankizm kontekstida tahlil qilgan. Shved-Norvegiya tadqiqotchisi Dan Olveysning aytishicha, zo'rvonlik odam "bir yoki bir nechta boshqa shaxslarning salbiy harakatlariga qayta-qayta va vaqt o'tishi bilan duchor bo'lganida sodir bo'ladi va salbiy harakatlar jismoniy kuch ishlatish, so'z yoki boshqa yo'llar bilan namoyon bo'ladi" [24]. Individual zo'rvonlik odatda boshqa odam ustidan hokimiyatga ega bo'lish uchun o'zini ma'lum bir tarzda tutishi bilan tavsiflanadi.

Zo'rvonlik odamlar bir-biri bilan o'zaro munosabatda bo'lgan har qanday harakatda rivojlanishi mumkin. Bunga maktab, oila, ish joyi, uy va mahallalar kiradi. Zamonaviy madaniyatda zo'rvonlikning asosiy platformasi ijtimoiy media veb-saytlari hisoblanadi [25].

Ota-onalar va ularga qonuniy vakillar quyidagi tadqiqotga asoslangan ilg'or tajribalardan foydalangan holda zo'rvonlikning oldini olish va unga samarali javob berishlari mumkin [26].

## **XULOSA**

Xulosa qiladigan bo'lsak, yosh bolalarda tajovuzkor xatti-harakatlar juda keng tarqalgan, ammo bu xatti-harakatlarga e'tibor berilmasa, ular tengdoshlari bilan zo'rvonlik va boshqa muammolarga olib kelishi mumkin. Ota-onalar yordam berish, baham ko'rish va muammolarni hal qilish kabi hamkorlikdagi xatti-harakatlarni rag'batlantirish orqali bu xatti-harakatlarni odatiy holga keltirmasdan oldin to'xtatish uchun harakat qilishlari mumkin.

Muammolarni birga baham ko'rish masalalari ham muhim ahamiyatga egadir. Ota-onalarning o'zaro aloqasi yo'qligi, masalan, o'z farzandlari bilan kam vaqt o'tkazadigan yoki ularning faoliyatini muntazam nazorat qilmaydigan ota-onalar bolaning zo'ravonlik qilish ehtimolini oshiradi; doimiy munosabatda bo'lgan ota-onalar bu ehtimolini kamaytiradi.

Zo'ravonlik haqida ma'lumot olish ham o'z navbatida bolalarga bo'layotgan zo'ravonliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Uning tabiati, tarqalishi, oqibatlari va oldini olish bo'yicha eng yaxshi amaliyotlar haqidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqish. "StopBullying.gov" [27] infografikasi asosiy ma'lumotlarni tushunish va boshqalar bilan baham ko'rishda foydali vosita bo'lishi mumkin.

Zo'ravonlik haqida ma'lumotga ega bo'lish esa, bolalar bilan zo'ravonlik haqida suhbatlashish ularga bu nima ekanligini, nima uchun zararli ekanligini va qanday javob berish kerakligini tushunishga yordam beradi. Zo'ravonlikka duch kelganda nima qilishlari mumkinligini muhokama qilish va mashq qilish muhim jarayondir. Masalan, to'g'ridan-to'g'ri va ishonch bilan "to'xtang" deb aytib, buning oqibatlari haqida tushuntirish berish maqsadga muvofiq.

Zo'ravon bolalarga boshqalarga mehribonlik va hurmat bilan munosabatda bo'lishni namuna qilish. Xalqaro tadqiqotchi A. Beldrining fikricha [28], bolalar ota-onalarining munosabati va xatti-harakatlaridan o'rnak olib, uni talqin etadilar. Oilaviy muhitdagi muammolar zo'ravonlik ehtimolini oshirishi mumkin. Masalan, oiladagi nizolarga duchor bo'lish, ota-onalarning giyohvand moddalar va spirtli ichimliklarni iste'mol qilishlari, oiladagi zo'ravonlik va bolalarni qo'rqitish ularning tengdoshlari bilan zo'ravonlik qilish ehtimolini oshirishi mumkin.

Bolalar boshqalarga qanday munosabatda bo'lishlari haqida aniq qoidalar va taxminlarni ishlab chiqish. Ushbu qoidalar jazolash emas, balki tegishli xulq-atvorni o'rgatish hamda oqibatlarini ko'rsatish bilan tarbiyalanadilar [29]. Ota-onasi mustaqillikka imkon beradigan, lekin chegaralarni belgilab beradigan va bolaning ehtiyojlariga javob beradigan tarbiya uslublaridan foydalanadigan bolalar zo'ravonlikka kamroq jalb qilinadi. Boshqa tomondan, haddan tashqari ruxsat beruvchi va haddan tashqari qattiq tartib-intizomni qo'llaydigan ota-onalarning bolalari zo'ravonlik qilish ehtimoli ko'proq. Bolalarni o'zlari yaxshi ko'radigan ish bilan shug'ullanishga undash. Maxsus mashg'ulotlar, qiziqishlar va sevimli mashg'ulotlar o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishi, bolalarga maktabdan tashqaridagi tengdoshlari bilan do'stlashishga yordam beradi va ularni qo'pol xatti-harakatlardan himoya qiladi.

Kuzatish. Bolalar kompyuterlar, uyali telefonlar yoki boshqa mobil qurilmalar orqali kiberbulling bilan shug'ullanishlari yoki ularga duchor bo'lishlari mumkin. Onlayn va mobil telefonlar orqali muloqot qilishning aniq qoidalarini belgilash, bolalarni texnologiyadan to'g'ri foydalanishga o'rgatish va bolaning faoliyatini kuzatib borishdan iboratdir.

Xullas, bolalar ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirib, ularni xavfsiz, erkin va yorqin kelajakka boshlashi shubhasiz. Shu sabablarni hisobga olgan holda quyidagilarni taklif sifatida keltirishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" Qonunining "Asosiy tushunchalar" deb nomlangan 3-moddasida "Jismoniy zo'ravonlik - shafqatsizlik va bolaga og'riq keltiruvchi hamda uning sog'lig'i va rivojlanishiga zarar yetkazuvchi insoniyatga mos bo'lmagan maqsadga yo'naltirilgan boshqa xatti-harakatlar ekanligi" va "Jinsiy zo'ravonlik - kattalarning jinsiy

ehtiyojlarini qondirish uchun bolalardan foydalanish uchun, bolaga tahdid, kuch, ayyorlik ishlatish hamda uning ishonchdan foydalanish kabi harakatlar”, Ruhiiy zo‘ravonlik - bolaga lozim darajada e‘tibor bermaslik, g‘amxo‘rlik qilmaslik, qo‘llab-quvvatlamaslik, hissiy yaqinlik ko‘rsatmaslik kabi harakatlarda namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq tushunchalar bilan to‘ldirish lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Rustambayev M.X., Niyozova S.S. Viktimologiya Umumiy qism. Darslik// Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2021. – 239 b. (Rustambayev M.Kh., Niyozova S.S. Victimology General part. Textbook// Tashkent: Public Security University of the Republic of Uzbekistan, 2021. - 239 p.)
2. З.Н.Эсанова. “Бола тарбияси билан боғлиқ низоларнисудда кўришнинг процессуал хусусиятлари”. // Масъул муҳаррир: Академик, ю.ф.д., проф. Ҳ.Р.Раҳмонқулов. – Тошкент.: ТДЮИ нашриёти, 2010. -289 бет. (Z.N. Esanova. "Procedural features of court consideration of disputes related to child upbringing". // Responsible editor: Academician, Ph.D., prof. H.R. Rahmonkulov. - Tashkent.: TDYuI publishing house, 2010. -289 pages.)
3. Ф.Мирўктамова. “Халқаро стандартларни ҳисобга олган ҳолда вояга етмаганлар одил судлови тизимига оид миллий қонунчиликни такомиллаштириш юзасидан амалий таклифлар” –Тошкент, ТДЮУ, Юридик фанлар ахборотномаси, 2019. -№3. –Б.147. (F. Miroktamova. "Practical suggestions on improving the national legislation on the juvenile justice system taking into account international standards" - Tashkent, TDUU, Legal Sciences Bulletin, 2019. -#3. -P.147.).
4. Bola huquqlari monitoringi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma /Mas‘ul muharrir A.X.Saidov. –Т.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Rjспубликаси Milliy markazi, 2011. -B.5 (Monitoring of children's rights. Instructional manual / Responsible editor A.Kh. Saidov. - T.: National Center of the Republic of Uzbekistan on Human Rights, 2011. -P.5).
5. Варчук Т.В. Виктимология: учеб. пособие для студентов вузов /Т.В.Варчук, К.В.Вишнеvский; под.пред. С.Я.Лебедева. –М.: Юнита-Дана, 2008. –С. 38.; Домашнее насилие: социально-правовой аспект. Учебно-методическое пособие под общей редакцией Е.Н.Ершовой, при участии С.Г.Айвазовой. Москва-2013. <http://www.wcons.org.ru>; McLeod D, Flood S. (2018), Coercive control: Impacts on children and young people in the family environment, Research in Practice SafeLives commissioned literature review pp.35.; Ganley, A. L., & Schechter, S. (1996). Domestic violence: A national curriculum for children’s protective services. San Francisco, CA: Family Violence Prevention Fund. [sciencedirect.com](http://sciencedirect.com); Алексеева Л.С. Жестокое обращение с детьми: его последствия и предотвращение. — М.: Национальный книжный центр, ИФ «Сентябрь», 2016.; Fortson B, Klevens J, Merrick M, Gilbert L, Alexander S. (2016). Preventing Child Abuse and Neglect: A Technical Package for Policy, Norm, and Programmatic Activities. Atlanta, GA: National Center for Injury Prevention and Control, Centers for Disease Control and Prevention.; Juvonen, J.; Graham, S. (2014). "Bullying in Schools: The Power of Bullies and the Plight of Victims». Annual Review of Psychology. 65:159–85.doi:10.1146/annurev-psych-010213-115030. (Varchuk T.V. Victimology: a textbook for university students / T.V. Varchuk, K.V. Vishnevsky; under.pred. S.Ya. Lebedeva. –М.: Unita-Dana, 2008. –S. 38.; Domestic violence: socio-legal aspect. Educational and methodological manual under the general editorship of E.N.

Ershova, with the participation of S.G. Aivazova. Moscow 2013. [http://www.wcons.org.ru.](http://www.wcons.org.ru;); McLeod D, Flood S. (2018), Coercive control: Impacts on children and young people in the family environment, Research in Practice SafeLives commissioned literature review pp.35.; Ganley, A. L., & Schechter, S. (1996). Domestic violence: A national curriculum for children's protective services. San Francisco, CA: Family Violence Prevention Fund. [sciencedirect.com](http://sciencedirect.com); Alekseeva L.S. Child abuse: its consequences and prevention. - M.: National Book Center, IF "September", 2016.; Fortson B, Klevens J, Merrick M, Gilbert L, Alexander S. (2016). Preventing Child Abuse and Neglect: A Technical Package for Policy, Norms, and Programmatic Activities. Atlanta, GA: National Center for Injury Prevention and Control, Centers for Disease Control and Prevention.; Juvonen, J.; Graham, S. (2014). "Bullying in Schools: The Power of Bullies and the Plight of Victims." Annual Review of Psychology. 65:159–85. doi:10.1146/annurev-psych-010213-115030.).

6. Rustambayev M.X., Niyozova S.S. Viktimologiya Umumiy qism. Darslik// Toshkent: O`zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2021. – 239 b. (Rustambayev M.H., Niyozova S.S. Victimology General part. Textbook// Tashkent: Public Security University of the Republic of Uzbekistan, 2021. - 239 p.).

7. Neale, B. And C. Smart. (1997). "Experiments with Parenthood?" Journal of Sociology, 38 (2), 201-219.

8. Yhoga zaw of persons//Rwading in African Zaw.<http://books.google.co.uz>.

9. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясига шарҳлар. –Тошкент. Адолат, 1999. -80 б. (Comments on the Universal Declaration of Human Rights. - Tashkent. Justice, 1999. -80 p.).

10. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси (1948 йил 10 декабрь)// Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси// <http://constitution.uz/uz/pages/humanrights>. (Universal Declaration of Human Rights (December 10, 1948)/ United Nations General Assembly// <http://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.).

11. Варчук Т.В. Виктимология: учеб. пособие для студентов вузов /Т.В.Варчук, К.В.Вишнеvский; под.пред. С.Я.Лебедева. –М.: Юнита-Дана, 2008. –С. 38. (Warchuk T.V. Victimology: textbook for university students / T.V. Varchuk, K.V. Vishnevsky; sub pred. S. Ya. Lebedeva. -M.: Unita-Dana, 2008. -S. 38.).

12. Дунёда болаларнинг ҳолати // БМТнинг махсус сессиясидаги маъруза, 2001 [www.un.org](http://www.un.org). [www.unicef.org](http://www.unicef.org) (State of the world's children // UN special session report, 2001 [www.un.org](http://www.un.org). [www.unicef.org](http://www.unicef.org)).

13. Домашнее насилие: социально-правовой аспект. Учебно-методическое пособие под общей редакцией Е.Н.Ершовой, при участии С.Г.Айвазовой. Москва-2013. <http://www.wcons.org.ru>. (Domestic violence: socio-legal aspect. Educational and methodological manual under the general editorship of E.N. Ershova, with the participation of S.G. Aivazova. Moscow-2013. <http://www.wcons.org.ru>).

14. Rustambayev M.X., Niyozova S.S. Viktimologiya Umumiy qism. Darslik// Toshkent: O`zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2021. – 239 b. (Rustambayev M.X., Niyozova S.S. Victimology General section. Darslik// Toshkent: University of Jamoat security of the Republic of Uzbekistan, 2021. – 239 p.).

15. McLeod D, Flood S. (2018), Coercive control: Impacts on children and young people in the family environment, Research in Practice SafeLives commissioned literature review pp.35.

16. Ganley, A. L., & Schechter, S. (1996). Domestic violence: A national curriculum for children's protective services. San Francisco, CA: Family Violence Prevention Fund. sciencedirect.com
17. Замечание общего порядка №13, Право ребенка на свободу от всех форм насилия, CRC/C/GC/13, 18 апреля 2011г. (General Comment No. 13, The Right of the Child to Freedom from All Forms of Violence, CRC/C/GC/13, 18 April 2011.).
18. Алексеева Л.С. Жестокое обращение с детьми: его последствия и предотвращение. — М.: Национальный книжный центр, ИФ «Сентябрь», 2016. (Alekseeva L.S. Child abuse: its consequences and prevention. — М.: National Book Center, IF "September", 2016.).
19. “Ўзбекистонда болаларни нолайиқ муносабатдан мухофаза қилиш тизими” тренинга материаллари асосида. Save the Children (UK), 2003. (Based on the training materials "System of protection of children from abuse in Uzbekistan". Save the Children (UK), 2003.).
20. Fortson B, Klevens J, Merrick M, Gilbert L, Alexander S. (2016). Preventing Child Abuse and Neglect: A Technical Package for Policy, Norm, and Programmatic Activities. Atlanta, GA: National Center for Injury Prevention and Control, Centers for Disease Control and Prevention.
21. Juvonen, J.; Graham, S. (2014). "Bullying in Schools: The Power of Bullies and the Plight of Victims». Annual Review of Psychology. 65:159–85.doi:10.1146/annurev-psych-010213-115030 (<https://doi.org/10.1146%2Fannurevpsych010213115030>).
22. Noa Davenport; Ruth Distler Schwartz; Gail Pursell Elliott (1999-07-01). Mobbing: Emotional Abuse in the American Workplace (<https://books.google.com/books?id=JlJoyD84BfAC>).
23. Burger, Christoph; Strohmeier, Dagmar; Spröber, Nina; Bauman, Sheri; Rigby, Ken (2015). "How teachers respond to school bullying: An examination of self-reported intervention strategy use, moderator effects, and concurrent use of multiple strategies". Teaching and Teacher Education. 51:191–202. doi:10.1016/j.tate.2015.07.004 (<https://doi.org/10.1016%2Fj.tate.2015.07.004>)
24. "History" (<http://www.clemson.edu/olweus/history.html>). OL WEUS Bullying Prevention Program. OL WEUS Bullying Prevention Program. Archived (<https://web.archive.org/web/20131029204025/http://www.clemson.edu/olweus/history.html>) from the original on 2013-10-29. Retrieved 2013-10-28.
25. S.S. Niyozova. Prevention of Crime in the Family and the Role of Victimology in the Republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 3, (2020), p. 3962.
26. Noa Davenport; Ruth Distler Schwartz; Gail Pursell Elliott (1999-07-01). Mobbing: Emotional Abuse in the American Workplace (<https://books.google.com/books?id=JlJoyD84BfAC>).
27. "Social Media Use May Harm Teens' Mental Health By Disrupting Positive Activities, Study Says" (<https://baltimore.cbslocal.com/2019/08/13/social-media-use-may-harm-teens-mental-health-by-disrupting-positive-activities-study-says/>) . 2019-08-13.
28. State Laws Related to Bullying Among Children and Youth" ([https://web.archive.org/web/20110304062718/http://www.stopbullyingnow.hrsa.gov/HHS\\_PSA/pdfs/SBN\\_Tip\\_6.pdf](https://web.archive.org/web/20110304062718/http://www.stopbullyingnow.hrsa.gov/HHS_PSA/pdfs/SBN_Tip_6.pdf)) (PDF). U.S. Department of Health and Human Services -

Health Resources and Services Administration -Maternal and Child Health Bureau. U.S. Department of Health and Human Services. Archived from the original ([https://stopbullyingnow.hrsa.gov/HHS\\_PSA/pdfs/SBN\\_Tip\\_6.pdf](https://stopbullyingnow.hrsa.gov/HHS_PSA/pdfs/SBN_Tip_6.pdf)) (PDF) on March 4, 2011. Retrieved 2013-10-28.

29. Niyozova Salomat Saparovna. Strong Emotional Arousal (Effect) As A Criminal Law Norm. The American Journal of Political Science Law and Criminology (ISSN – 2693-0803) Published: March 31, 2021 | Pages: 96-102  
Doi:<https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume 03 Issue p. 03-15>.